ZAMONAVIY TERGOV FAOLIYATIDA KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNI ANIQLASH: OSINT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI YONDASHUVLAR

Abduqaxxorova Nilufar Sherzod qizi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21897028

Annotatsiya:
Ushbu maqolada zamonaviy tergov faoliyatida korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlash va ularning oldini olishning huquqiy, tashkiliy va texnologik jihatlari tahlil qilinadi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning yuqori latentlik (yashirinlik) darajasi sababli an'anaviy tergov usullarining amaliy samarasi cheklanganligi asoslab beriladi. Shu munosabat bilan ochiq manbalar razvedkasi (OSINT), moliyaviy razvedka (follow the money), komplayens-nazorat va raqamli kriminalistika kabi zamonaviy mexanizmlarning tergov amaliyotidagi o‘rni yoritiladi. Singapur, Janubiy Koreya, AQSh va Yevropa davlatlarining ilg‘or tajribasi qiyosiy o‘rganilib, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: korrupsiya, tergov faoliyati, OSINT, moliyaviy razvedka, komplayens-nazorat, kriminalistik profilaktika, raqamli kriminalistika, whistleblower, noqonuniy boyish, qonun ustuvorligi.

Аннотация: В статье анализируются правовые, организационные и технологические аспекты выявления коррупционных преступлений в современной следственной деятельности. Обосновывается ограниченная эффективность традиционных методов расследования в силу высокой латентности коррупционных преступлений. В связи с этим освещается роль таких современных механизмов, как разведка на основе открытых источников (OSINT), финансовая разведка, комплаенс-контроль и цифровая криминалистика. Сравнительно изучен передовой опыт Сингапура, Южной Кореи, США и европейских стран, разработаны научно-практические предложения по совершенствованию законодательства и деятельности правоохранительных органов Республики Узбекистан.
Ключевые слова: коррупция, следственная деятельность, OSINT, финансовая разведка, комплаенс-контроль, криминалистическая профилактика, цифровая криминалистика, осведомители, незаконное обогащение, верховенство права.

Abstract: This article analyzes the legal, organizational, and technological aspects of detecting corruption-related crimes in modern investigative practice. It substantiates the limited effectiveness of traditional investigative methods given the high latency of corruption offences, and examines the role of open-source intelligence (OSINT), financial intelligence, compliance control, and digital forensics. The advanced experience of Singapore, South Korea, the United States, and European countries is comparatively studied, and scientific-practical proposals for improving Uzbekistan's legislation and law-enforcement practice are developed.
Keywords: corruption, investigative activity, OSINT, financial intelligence, compliance control, forensic prevention, digital forensics, whistleblower, illicit enrichment, rule of law.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatchilikka, xususan korrupsiyaga qarshi kurashish har qanday huquqiy davlatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, korrupsiyaning oldini olmasdan turib, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, jamiyatning birorta sohasi ham rivojlanmaydi. Shu sababli korrupsiyaviy jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va ularning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning o‘ziga xos kriminologik xususiyati ularning yuqori darajadagi latentligi (yashirinligidir). Pora beruvchi va pora oluvchi taraflar jinoyatni fosh etishdan emas, aksincha uni sir saqlashdan manfaatdor bo‘ladi. Bu holat an'anaviy tergov va profilaktika usullarining

samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlardan proaktiv, texnologik jihatdan yangilangan yondashuvlarni talab qiladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarni barvaqt aniqlash bir qator obyektiv qiyinchiliklarga ega. Birinchidan, poraxo‘rlik, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish yoki byudjet mablag‘larini talon-toroj qilish kabi jinoyatlarda har ikki tomon ham jinoiy harakatni yashirishdan manfaatdor bo‘ladi, natijada hech kim ixtiyoriy ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmaydi. Ikkinchidan, davlat xaridlari, kadrlar tanlash va litsenziyalash jarayonlarida nepotizm va tanish-bilishchilik elementlari rasmiy hujjatlar orqali isbotlanishi qiyin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqaradi. Uchinchidan, tezkor-profilaktik chora-tadbirlar ko‘pincha aniq jinoyat fakti yuzaga kelgandagina qo‘llaniladi, holbuki mansabdor shaxsning xulq-atvorida og‘ish (masalan, daromadiga nomutanosib turmush darajasi) kuzatilganidayoq ogohlantiruvchi chora ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi omillar zamonaviy tergov faoliyatida faqat protsessual (tergov) harakatlar bilan cheklanib qolmasdan, noprotsessual tezkor-qidiruv, tahliliy va texnologik vositalarni ham kompleks qo‘llashni taqozo etadi.

Ochiq manbalar razvedkasi (Open Source Intelligence, OSINT) ommaviy va qonuniy tarzda mavjud bo‘lgan axborot manbalari (ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy reestrlar, kadastr ma'lumotlari, ochiq davlat xaridlari platformalari va boshqalar) asosida tahliliy xulosalar chiqarish faoliyatidir. Mansabdor shaxsning rasmiy daromadi uning ijtimoiy tarmoqlardagi turmush tarzi (lifestyle analysis) bilan solishtirilishi tergov organlari uchun dastlabki gumon signali bo‘lib xizmat qiladi. OSINT vositalari, shuningdek, davlat xaridlari tenderlarida bitta IP-manzil yoki umumiy rekvizitlar orqali bog‘langan «raqobatchi» firmalarni, affillangan tuzilmalarni va yashirin qarindosh-urug‘chilik aloqalarini aniqlashda qo‘llaniladi.

«Moliyaviy razvedka» (follow the money) taktikasi shubhali bank va ofshor hisob raqamlariga o‘tkazilgan mablag‘larni kuzatishga asoslanadi. Yirik korrupsion sxemalarda pora ko‘pincha naqd pul ko‘rinishida emas, balki soxta shartnomalar, xizmat ko‘rsatish yoki qarindoshlar nomiga ko‘chmas mulk o‘tkazish orqali beriladi, shu bois bunday operatsiyalarni fosh etish maxsus moliyaviy-tahliliy vositalarni talab qiladi. Kriptovalyuta orqali amalga oshiriladigan poralarni aniqlash uchun blokcheyn-tahlil dasturlaridan foydalaniladi bunday dasturlar token harakatini kuzatib, ularni naqd pulga aylantirgan shaxslarni aniqlash imkonini beradi.

Davlat va nodavlat tashkilotlarda joriy etilayotgan «komplayens-nazorat» (compliance control) tizimi orqali har bir lavozimning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi («qizil», «sariq», «yashil» hududlar) baholanadi. Yuqori xavfli lavozimlarda (tender komissiyalari, moliya bo‘limlari) ishlayotgan shaxslarning faoliyati raqamli dasturlar orqali doimiy audit qilib boriladi, bu esa inson omilini minimallashtirish va korrupsiyaviy vaziyatni oldindan bashorat qilish imkonini yaratadi.

Kriminalistik profilaktika korrupsiyaviy jinoyatning sodir bo‘lishidan avval uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan. Bunda korrupsionerning va u sodir etadigan jinoiy sxemalarning ilmiy modeli (profili) ishlab chiqiladi: muayyan lavozim va sohalar (davlat xaridlari, qurilish, sog‘liqni saqlash) bo‘yicha «nozik nuqtalar» aniqlanadi, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari yordamida byudjet mablag‘larining harakati real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Tergov yakunida tegishli idoraga yo‘naltiriladigan taqdimnomalar kriminalistik profilaktikaning bevosita huquqiy vositasi sifatida tizimli korrupsiya omillarini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Singapur Korrupsiyaga qarshi tergov byurosi (CPIB) amaliyotida «qonunga xilof boyish prezumpsiyasi» qo‘llaniladi: agar mansabdor shaxsning turmush darajasi uning rasmiy daromadidan sezilarli yuqori bo‘lsa, mol-mulkning qonuniy manbasini isbotlash majburiyati aynan shu shaxsning zimmasiga yuklanadi. Isbotlay olmagan taqdirda mol-mulk musodara qilinadi. Bu mexanizm kadrlar orasida eng kuchli profilaktik to‘siqlardan biri hisoblanadi.

Janubiy Koreyada davlat xaridlari va ruxsat berish tizimlari (KONEPS) to‘liq elektron va blokcheyn asosiga o‘tkazilgan bo‘lib, dasturning o‘zi ishtirokchilar o‘rtasidagi qarindoshlik yoki sheriklik

aloqalarini avtomatik aniqlab, jarayondan chetlashtiradi — bu inson omilini deyarli butunlay bartaraf etadi.

AQSh va Skandinaviya davlatlarida korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni (whistleblower) kafolatli himoya qilish va moddiy rag‘batlantirish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan: xabar beruvchining shaxsi maxfiy saqlanadi, undirilgan mablag‘ning bir qismi unga mukofot sifatida to‘lanadi. Bu korrupsion tarmoqni ichdan yemirishning samarali usuli sifatida baholanadi.

Buyuk Britaniya, AQSh va Niderlandiya kabi davlatlarda video-monitoring tizimlari, biometrik identifikatsiya va dronlardan foydalanish kabi texnologik vositalar jinoyatlarni fosh etish va oldini olishda keng qo‘llaniladi, bu esa «high-tech policing» tamoyilining amaliy ifodasidir.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asosi 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonun bilan yaratildi. Ushbu qonun korrupsiyaning oldini olish, uni aniqlash va unga qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Prezidentning 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-son qarori bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, raqamli texnologiyalarni joriy etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish vazifalari belgilandi. Shuningdek, «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi (2024-yil O‘RQ-931-son) va «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlar ushbu sohadagi tartibga solishning muhim tarkibiy qismlaridir.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida korrupsiyaviy jinoyatlar dinamikasiga muayyan ijobiy ta'sir ko‘rsatildi: 2020-yilda korrupsiyaviy jinoyatlar bo‘yicha 1723 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan bo‘lsa, 2021-yilning birinchi yarim yilligida 2544 nafar shaxsga nisbatan 1676 ta jinoyat ishi sudlarga yuborilgan. Shu bilan birga, Transparency International tashkilotining 2022-yilgi Korrupsiyani idrok etish indeksida O‘zbekiston 180 davlat orasida 146-o‘rinni egallagani muammoning hali ham jiddiyligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga xalqaro standartlarga (xususan, Singapur va Gonkong tajribasiga) mos ravishda «Noqonuniy boyish» (Illicit enrichment) tarkibini kiritish hamda mansabdor shaxsning xarajatlari rasmiy daromadidan nomutanosib yuqori bo‘lgan hollarda mablag‘ manbasini isbotlash majburiyatini uning o‘ziga yuklovchi mexanizmni qonunlashtirish;

2) Ichki ishlar organlari tarkibidagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘linmalarini OSINT va raqamli kriminalistika bo‘yicha maxsus tayyorlangan tahlilchilar bilan mustahkamlash, ularni davlat xaridlari, elektron hukumat va bojxona ma'lumotlar bazalarini sun'iy intellekt yordamida tahlil qiluvchi dasturiy vositalar bilan ta'minlash;

3) Korrupsiya holatlari haqida ixtiyoriy xabar bergan fuqarolar (whistleblowers) va maxfiy hamkorlarning xavfsizligini kafolatlaydigan, ularni moddiy rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi maxsus qonun hujjatini ishlab chiqish hamda xabar beruvchining anonimligini raqamli shifrlash orqali ta'minlash;

4) Yuqori korrupsiyaviy xavf guruhiga kiruvchi lavozimlarda komplayens-nazorat tizimini kengaytirish va uni tezkor-profilaktik chora-tadbirlar bilan uyg‘unlashtirish;

5) Kriptovalyuta orqali amalga oshiriladigan poralarni kuzatish uchun blokcheyn-tahlil vositalaridan foydalanish bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini tizimli ravishda kiber-treninglarga jalb etish.

Zamonaviy sharoitda korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish faqat jinoyat sodir bo‘lgandan keyingi jazolash chorasi bilan cheklanib qolmasligi kerak. Korrupsiyaning yuqori latentlik xususiyati tergov faoliyatida OSINT, moliyaviy razvedka, raqamli kriminalistika va komplayens-nazorat kabi proaktiv, texnologik vositalarni tizimli tatbiq etishni taqozo etadi. Singapur, Janubiy Koreya, AQSh va Yevropa davlatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani jilovlashning eng samarali yo‘li jinoyatning oqibatlarini bartaraf etishdan ko‘ra, uning sodir bo‘lishiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni oldindan bartaraf etishdir. O‘zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqaro ilg‘or tajriba va zamonaviy raqamli vositalar bilan boyitish ushbu sohadagi samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonuni. 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi Qonuni. 05.06.2024 yildagi O‘RQ-931-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 25.12.2012 yildagi O‘RQ-344-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PQ–4761-son «Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori.
6. Masharipov T., Fayzullayev D. «Tezkor-qidiruv taktikasi va jinoyatlarni fosh etishning zamonaviy muammolari». – Toshkent: IIV Akademiyasi, 2024.
7. Quah, J. S. T. «Combating Corruption in Asian Countries: Learning from Success and Failure» (Singapore CPIB Experience). Public Administration and Policy, 2017.
8. Federal Bureau of Investigation (FBI). «Public Corruption: Investigative Tactics and Whistleblower Protections». U.S. Department of Justice, 2023.
9. Saidov, A. «Qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurash». Adolat. Toshkent, 2018.
10. Belkin R.S. Kurs kriminalistiki. T. 3. — M., 1997. — S. 142–148.
11. OSINT va raqamli tergov bo‘yicha adabiyotlar:
12. Bazzell, M. «Open Source Intelligence Techniques: Resources for Searching and Analyzing Online Information». 9th ed. — IntelTechniques, 2023.
13. Europol. «The Role of Cryptocurrency and OSINT in Investigating High-Level Corruption». — The Hague, 2023.
14. NATO Open Source Intelligence Handbook. — NATO Open Source Intelligence Reader, Version 2.0.
15. OECD. «Compliance, Anti-Corruption and Integrity in Public Sector». — Paris, 2022.
16. UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime). «Digital Forensics and Open-Source Investigations in Anti-Corruption Casework». — Vienna, 2022.
17. Interpol. «Guidelines on the Use of Open Source Information in Financial Investigations». — Lyon, 2021.
18. Transparency International. «Corruption Perceptions Index 2022». https://www.transparency.org/en/cpi/2022
19. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (2003). // https://lex.uz/docs/-1461329